

## **QOBILIYAT KOGNITIV PSIXOLOGIYANING MUHIM TADQIQOT JARAYONI SIFATIDA**

*Muhammadiyev Shavkat Adilaxatovich*

*Osiyo xalqaro universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** Qobiliyat insonga berilgan in'om sifatida qaraladi. Aksariyat ilmiy manbalarda mohirlik bilan qobiliyat aynanlashtiriladi. Qobiliyat inson tomonidan ko'nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi. Maqolada qobiliyatning psixologiyada tadqiq etilishi, xususiyatlari, qobiliyattnnni o'rganilishi va ilmiy tahlillar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** qobiliyat, talent, salohiyat, shaxs, IQ, Kettel testlari, Ayzenk testlari

Qobiliyat — insonning individual salohiyati, imkoniyatlari. Qobiliyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi, Qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Qobiliyat ko'nikma, malakadan farq qiladi. Qobiliyat insonga berilgan in'om sifatida qaraladi. Aksariyat ilmiy manbalarda mohirlik bilan qobiliyat aynanlashtiriladi. Qobiliyat inson tomonidan ko'nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi. Har qanday qobiliyat turi shaxsga tegishli murakkab psixologik tushunchadan tashkil topgan bo'lib, u faoliyatning talablariga mutanosib xususiyatlar tizimini o'z ichiga oladi. Shuning uchun qobiliyat deganda birorta xususiyatning o'zini emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlashga imkoniyat beradigan xususiyatlar sintezini tushunmoq lozim.

Barcha qobiliyat uchun tayanch xususiyat - kuzatuvchanlikda, ya'ni insonni fahmlash, obyektdan u yoki bu alomatlarni ko'ra bilish, ajrata olish ko'nikmasidir. Qobiliyatning yetakchi xususiyatlaridan biri - narsa va hodisalar mohiyatini ijodiy tasavvur qilishdir. U shaxsning shakllanishi va rivojlanishi natijasi bo'lishi bilan birga, tabiiy manbara ham ega. Bu tabiiy manba ko'pincha zehn tushunchasi bilan yuritiladi.

Zehn muayyan bir faoliyatga yoki ko'pgina narsalarga nisbatan ortiqcha qiziquvchanlikda, moyillikda, intilishda namoyon bo'ladi. Zehn nishonalarini deganda qobiliyat ichki imkoniyatlarining tabiiy asosini tushunish lozim. U ishtiyoq, moyillik, mehnatsevarlik, ishchanlik, talabchanlik kabilarning mahsulidir. Qobiliyat umumiy va maxsus turkumlarga ajratiladi. Umumiy qobiliyat deganda yuksak aqliy imkoniyat va taraqqiyot tushuniladi. Qobiliyat tabiiy ravishda shakllanishi va muayyan reja asosida rivojlantirilishi mumkin. Qobiliyatni ma'lum faoliyatga moyillik yoki intilish orqali, tabiiy zehn nishonalarini aniqlash, mutaxassis rahbarligida uzlusiz faoliyatga jalg etish, qobiliyatni takomillashtirishning maxsus vositalarini qo'llash, shaxsning faollik alomatlarini maksimal darajada rivojlantirish, inson shaxsiga alohida yondashuvni umumiy talablar bilan uyg'unlikda olib borish va boshqa orqali rivojlantirish yo'llari mavjud. Qobiliyatning yuqori darajasi iste'dod va daholik (qarang Daho) namoyon bo'ladi. Qobiliyatlar, aslida, tug'ma bo'ladi. Qobiliyat tug'ma bo'lsada uning rivojlanishi ijtimoiy muhitga ham bog'liq bo'ladi

Bugungi kunda bilimlar tizimini mustaqil ravishda asosiy manbalardan va internet tarmog'idan o'rganish yuqori aqliy qobiliyat egasi bo'lishni talab etadi. SHunday ekan ta'lim oluvchilar aqliy jihatdan etuk bo'lishlari kerak, o'shanda ular barcha fanlarning asoslarini, kasbiy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda bir xilda harakatlanish imkoniyatiga ega bo'ladir.

Uzlusiz ta'limda ta'lim oluvchilarining aqliy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishningpsixologik qonuniyatlarini aniqlash umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining mustaqil ta'limolishi va

aqliy qobiliyatlarini o'stirishlariga imkon yaratadi. Bu esa aqliy qobiliyatni aniqlashvarivojlantirishning maxsus diagnostik vositalari va yangi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanishni talab etadi.

Bilimlarni oson o'zlashtirish, ta'lif samaradorligini ta'minlash va ijodiy izlanishga yo'l ochish aynan aqliy qibiliyatlarining tub mohiyatini anglab etishni taqozo etadi. O'quvchilariningta'lim jarayonida aqliy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish va rivojlantirish uchun o'ziga xos ta'lif metodlarini joriy etish, oqilona yo'llar orqali muammolarni yechishga o'rgatish, mustaqil fikrlashgava ijodiy izlanishlar olib borishga tayyorlash lozim.

Amaliy psixologiyaning bugungi kundagi eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri layoqat kurtaklarini ilk yoshlikdan aniqlash, intellekt darajasiga ko'ra shaxs qobiliyatlarini yo'nalishini ochib berishdir. Shuning uchun ham hozirda ko'plab intellekt testlari va qobiliyatlarni diagnostika qilish usullari ishlab chiqilgan va ular muvaffaqiyatli tarzda amaliyotda qo'llanmoqda.

Qobiliyatlarni o'lhash muammosi XIX-asrning oxiri - XX-asrning boshlariga kelib izchil hal qilina boshlandi. Xorijda bunday ishlar Spirmen, Bine, Ayzenk va boshqalar tomonidan o'r ganildi. Ular qobiliyatlar va iqtidorni o'rganish uchun maxsus tastlardan foydalandilar. Bu testlarning umumiyligi mohiyati shundaki, ularda topshiriqlar tizimi tobora qiyinlashib boruvchi testlar - topshiriqlar batareyasidan iborat bo'ladi. Masalan, Ayzenkning mashxur intellekt testi 40 ta topshiriqdan iborat bo'lib, u intellektual jarayonlarning kechishi tezligini o'lchaydi. Bu erda vaqt mezoni muhim hisoblanadi. Boshqa muamlliflar sekin ishlash - qobiliyatsizlik belgisi emas deb, boshqacharoq usullarni o'ylab topganlar. Ko'pchilik olimlar uchun, masalan, rus olimlari uchun qobiliyatni ulchashning ishonchli mezoni - bu shaxs yutuqlarini va uning qobiliyatidagi o'zgarishlarni bevosita faoliyat jarayonida qayd etishdir.

Aqliy qobiliyat tabiat in'omi bo'lishi bilan bir qatorda ta'lif-tarbiyaga muxtoj bo'lgan, uzluksiz rivojlanish xarakteriga ega bo'lib, shaxsning umumiyligi rivojlanganlik darajasini hamdafikryuritish uslubini belgilab beruvchi ko'p qirrali individual psixologik xususiyat hisoblanadi.

Aqliy qobiliyat shaxsning integral xususiyati bo'lib, uning tarkibiga barchapsixik protsesslar, individual psixologik xususiyatlar va xolatlar kiritiladi. Bir so'z bilan aytganda aqliy qobiliyat murakkab tuzilishga ega. Shuning uchun aqliy qobiliyatni diagnostika qilish va ro'yobga chiqarish uchun uning tarkibini o'rganish hamda tuzatish muhim.

Aqliy qobiliyatni tekshirish va o'rganishda turli-xil usullar mavjud bo'lib "Qisqa tanlov tesatlari" hamda "Raqamlı testlar" dan foydalanish o'quvchilarini intellektual rivojlanish darajasini to'g'ri baholashga yordam beradi.

QTT yordamida Umumiyligi o'rta ta'lif maktabi o'quvchilarining mantiqiy tafakkur xususiyatlarini o'rganish mumkin.

Qisqa tanlov testi umumiyligi aqliy qobiliyat testlari kategoriyasiga taalluqli bo'lib, sinaluvchilarning aqliy taraqqiyot darajasini diagnostika qilishga mo'ljallangan.

QTT turli murakkablikdagi 50 ta topshiriqni o'z ichiga oladi. Bu topshiriqlarni bajarishjarayonida sinaluvchilari o'zidagi aqliy imkoniyatlarning integral ko'rsatgichlarini namoyonqiladi. Chunki test topshiriqlari aqliy qobiliyatlarining barcha komponentlariga taalluqli bo'lib, butopshiriqlar aqliy faoliyatning bir qator xususiyatlarini aniqlab berish imkoniyatiga ega. Jumladan: materialni analiz qilish va umumlashtirish qobiliyatasi, tafakkurning originalligi, fikr yuritishningtezligi, emotsiyonal jihatlari, tildan foydalanish, umumiyligi bilimdonlik va hokazolar.

'Qisqa tanlov testi' rossiyalik psixolog V.N.Buzin tomonidan ishlab chiqilgan psixologiya fanlar nomzodi X.G'. Sharafutdinova tomonidan o'zbek milliy muhitiga moslashtirilgan.

Ushbu metodika (QTT) umumiyligi aqliy qobiliyat testlari qatoriga kiritilgan bo'lib, 'umumiyyaqobiliyat' larning quyidagi integral ko'rsatkichlarini aniqlashga mo'ljallangan;

**Index:** [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

- Materialni umumlashtirish va tahlil qilish;
- Tafakkurning egiluvchanligi;
- Tafakkurning ko‘chuvchanligi;
- Tafakkurning emotsiyonal jihatlari: fikrning chalg‘ishi;
- Idrokning tezligi va aniqligi;
- Tildan foydalanish (savodxonlik);
- Mo‘ljal olish yoki qulay usulni tanlash;
- Tasavvur obrazi.

Ma‘lumki umumiyy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari vaoliyo‘quv yurtlarida ta’limning uzluksizligini ta‘minlash, kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishchunmuammo yoki topshiriqlarni hal etishda o‘quvchilarni doimiy ravishda yangicha, original, ijodiyyondoshishga o‘rgatish muhimdir.

Raqamli test raqamlar almashinushi va sonlar o‘rtasidagi bog‘liqliklarning yashirin jihatlarini axtarish va izlab topish kabi xususiyatlarni tarkib toptiradi.

Test topshiriqlari bir necha xil ko‘rinishlarga ega, ammo ularni bajarish sinaluvchidan bir-biriga yaqin aqliy harakatlarni talab etadi. Jumladan sonlar qatorini davom ettirish lozim bo‘lgan topshiriqlar turli ko‘rinishlarda berilgan, ularga 1, 3, 5, 8, 10, 12, 14, 17, 26, 29, 30, 33, 34, 37, 45, 48, 49 – topshiriqlar kiritilgan. Ularning ayrimlari aniq bir sonni qatordagi sonlarga qo‘shish, ayirish yoki ko‘paytirish orqali bajariladi.

Psixologiyada qobiliyat individual-psixologik xususiyatlar sifatida tavsiflanadi va uning asosida har bir insonning boshqa insondan tafovutlanadigan hislatlari, fazilatlari yotadi. Shuning uchun har bir shaxsdan bir xil natija, bir xil sifat kutish mumkin emas, chunki insonlar o‘zqobiliyati bo‘yicha bir-biridan muayyan darajada farq qiladi. Binobarin, ular o‘rtasida sifat va miqdor jihatidan farqlar ko‘p bo‘lishi mumkin. Qobiliyatning sifat tavsifi shaxsning qaysi individual-psixologik xususiyatlari faoliyat muvaffaqiyatining majburiy sharti tariqasida xizmat qilishini anglatadi. Ularning miqdoriy tavsifi esa faoliyatga qo‘yiladigan talablarga shaxs tomonidan qay yo‘sinda bajarish imkoniyati mavjudligini bildiradi, ya’ni mazkur inson boshqa odamlarga qaraganda malaka, bilimlardan nechog‘lik tez, oson, puxta foydalana olishini namoyon qiladi. Qobiliyat xususiyatlarining sifat jihatidan talqin qilinishida, birinchidan, maqsadga turlicha yo‘llar orqali erishishga imkon beruvchi o‘zgaruvchan miqdor majmui tariqasida, ikkinchidan, faoliyat muvaffaqiyatini ta‘minlovchi shaxsning individual-psixologik hislatlari (fazilatlari)ning murakkab majmuasi ko‘rinishida gavdalanadi. Hayotda ko‘zi ojiz musiqachi, artist, shoir, rassom, muhandis va boshqa shu kabi kasb egalari ko‘p uchraydi. Hatto eshitish qobiliyati past yoki umuman yo‘qligi ham kasbiy-musiqaviy qobiliyatning rivojlanishiga keskin xalaqit bermasligi mumkin. Bu psixologik hodisa (bir qobiliyatni boshqa qobiliyat yordamida o‘stirish, ya’ni kompleksatorlik xususiyati) har bir shaxs uchun kasb tanlash va qayta kasb tanlash (ikkinchi yoki uchinchi kasbni egallash ishtiyoqi) sohasida mislsiz keng ko‘lamdagagi imkoniyatlarni ochadi. Qobiliyatli shaxslar ijtimoiy turmushning turli jabhalarida o‘z o‘rnini topa oladi hamda yuksak yutuqlarga erishadi, hatto bir necha faoliyat turida muvaffaqiyat qozonishi ham mumkin. Psixologiyada qobiliyatni miqdor jihatdan o‘lchash muammosi o‘ziga xos tarixga ega. XIX- asrning oxiri XX-asrning boshlarida qator psixologlar (Kettel, Termin vaboshqalar) ommaviy ixtisoslar uchun kasb tanlashni amalga oshirish zarurati bilan bog‘liq bo‘lgan talablar ta’siri ostida ta’lim olayotganlarning qobiliyat darajasini aniqlashni taklif qilib chiqdilar. Bu bilan shaxsning mansabdorlik darajasida tutgan o‘rni va uning u yoki bu mehnat faoliyatida, oliy o‘quv yurtlarida ta‘lim olishida, ishlab chiqarishda, harbiy xizmatda va ijtimoiy hayotda rahbarlik lavozimini egallashiga layoqatini aniqlash taxmin qilingan edi. Biroq,

qobiliyatni miqdor jihatdan baholash muammosi jamiyatda paydo bo,,lish davridan e'tiboran ikki xil xususiyat kasb etadi. Bir tomondan, u mehnatkash kishining aniq imkoniyatlarini obyektiv ravishda aniqlashga imkon beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati**

1. М.Ропиев., З.Элов. Идентификация жараёни шахс ижтимоийлашуви муаммосининг психологияда ўрганилиши. 2023. Science and Education 4 (10), 387-392
2. Z.S.Elov. Qobiliyatning shaxs psixologiyasidagi o'rni va Danning-Kryuger effekti. 2021. PEDAGOGIK MAHORAT 1 (5), 143-144
3. Z.S.Elov. Nutqda uchraydigan buzilishlar va ularni yuzaga keltiruvchi sabablarning bola ruhiyatiga psixologik ta'siri. PEDAGOGIK MAHORAT (Ilmiy-nazariy metodologik jurnal) 1 (1, 2022 fevral), 103-105
4. Z.Ismoilova., Z.Elov. Bolalar intellektini rivojlantirish usullari. 2023 INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM 3 (28), 41-47
5. З.Элов. Мактабгача ёшдаги болаларнинг ақлий ривожланиш моделлари. 2023 ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz) 35 (35)
6. З.С.Элов. Нутқдаги айрим нуқсонларнинг бола руҳиятига психологик таъсири. 2021 ZAMONAVIY DUNYODA AMALIY FANLAR: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR (RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI)
7. Elov, Z., & Mamatov, O. T. (2024). TALABA SHAXSIDA BILISH FAOLIYATIGA MOTIVLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK ASOSLARI. "ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал, 2(10).
8. Sattorovich, E. Z. (2024). O 'SMIRLARDA SUITSIDIAL HOLATLARNI KELTIRIB CHIQARUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR. PEDAGOG, 7(5), 31-37.
9. Sattorovich, E. Z. (2024). SUD PSIXOLOGIK EKSPERTIZASI TARIXI RIVOJLANISH JARAYONI BOSQICHLARI. PEDAGOG, 7(4), 306-313.
10. Axmadovna, G. M., & Sattorovich, E. Z. (2024). INKLYUZIV TA'LIMDA PEDAGOG-PSIXLOGNING KASBIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. PEDAGOG, 7(4), 477-480.
11. Elov, Z. (2024). HARBIY XIZMATCHI KASBIY KOMPETENTLIGI NAMOYON ETILISHI VA RIVOJLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. IMRAS, 7(1), 800-803.
12. Elov, Z. (2023). РУҲИЙ-ЖИНСИЙ БУЗИЛИШЛАР ШАХСДА ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК МУАММО СИФАТИДА. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 43(43).
13. Ziyodullo, E. L. O. V. (2023). O 'Z JONIGA QADS QILISH MASALASI JAMIYAT OLDIDA TURGAN MUHIM IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(12), 50-54.
14. Ziyodullo, E. L. O. V. (2023). SHAXSDA FOBIYA HOLATI VA UNING DIAGNOSTIKASI. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(11), 66-74.
15. Elov, Z. (2023). DEVIANT XULQ-ATVORLI O 'SMIRLARDA SUITSIDIAL HOLATLARNI KELTIRIB CHIQARUVCHI OMILLAR:(Ilmiy tаддиқотлар natijalari asosida). ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 42(42).
16. Elov, Z. (2023). O'SMIRLAR ORASIDA SUITSIDGA MOYILLIKNI ANIQLASH VA KORREKSIYALSHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 41(41).

*Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.*

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

17. Ziyodullo, E. L. O. V. (2023). SUITSIDIAL XULQ-ATVOR HAQIDA TAHLLILLAR VA NAZARIYALAR. *Journal of Pedagogical and Psychological Studies*, 1(10), 11-22.
18. Elov, Z. (2023). ЎСМИР ШАХСИДА ДЕЛИКВЕНТ АҲЛОҚ-ДЕВИАНТ ХУЛҚАТВОРНИНГ ШАКЛИ СИФАТИДА. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 40(40).
19. Elov, Z. (2023). ДЕВИАНТ ХУЛҚ-АТВОРЛИ ЎСМИРЛАР МУАММОСИНИНГ ИЛМИЙ АСОСЛАРИ ҲАҚИДА ПСИХОЛОГИК ЁНДАШУВЛАР ВА ТАҲЛИЛЛАР. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 40(40).
20. Elov, Z. (2023). ДЕВИАНТ ХУЛҚ-АТВОРЛИ ЎСМИРЛАР ТОМОНИДАН СОДИР ЭТИЛАЁТГАН НОҚОНУНИЙ ҲАТТИ-ҲАРАКАТЛАРНИНГ ПСИХОЛОГИК САБАЛЛАРИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 40(40).